moli ko‘p hisoblanadi [5;28-b.]. Bu degani siyosatda har qaysi taraf o‘zining xatti-harakatini ijobiy tarzda, ikkinchi tarafga esa, ko‘pincha, salbiy tarzda baho beradi. Barak Obamaning inauguratsiya nutqini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda 1-shaxs ko‘plik olmoshidan samarali foydalanilgan, bu tinglovchilar bilan hamfikr ekanligini, bu masalaga hamma birdek mas’ul ekanligini insonlarning ongiga singdirishga yordam beradi. Bundan tashqari, siyosiy nutqda, ko‘pincha, majhul nisbatdan ham foydalaniladi, bu diqqatni notiqning o‘ziga emas, balki nutqning o‘ziga, nutqning maqsadiga e’tibor berishga undaydi. Siyosiy nutqning o‘ziga xos siyosiy terminlari va jargonlari ham mavjud, lekin uni hamma ham tushuna olmaydi. Bunday holatda siyosiy terminlarni bilmaydigan auditoriya uchun istisno qilish mumkin. V.Konolli o‘zining “Siyosiy diskursga oid atamalar” kitobida siyosiy diskursni tushunishni uchta ma’noda izohlab o‘tadi:

1. Bu kabi lug‘at, odatda, siyosiy fikr va harakatlarda qo‘llaniladi.
2. Lug‘atda ifodalangan ma’nolar umumlashadi va ma’lum bir tushuncha doirasini yaratadi.
3. Ushbu mezonlar amalga oshganda vazifalar va qarorlar an’anaviy tarzda ma’qullanadi [1].

Bundan tashqari, takrorlash siyosiy nutqda ko‘p uchraydigan lingvistik xususiyatdir. Muayyan tushuncha yoki da’vatlarni takrorlash orqali siyosatchilar o‘zlarining fikrlarining ta’sir doirasini kuchaytiradilar va insonlar xotirasida yanada ko‘proq esda qolishiga sharoit yaratdilar. Jumladan, Barak Obama ham o‘z g‘oyalarini mustahkamlash hamda hissiy ta’sirini oshirish maqsadida takrorlardan unumli foydalangan.

Xulosa. Siyosiy diskursning lingvistik xususiyatlari oddiy muloqot doirasidan farq qiladi. Ular siyosatchilar tomonidan ommani ishontirish, ularga ta’sir o‘tkazish va birlashtirish uchun ishlab chiqilgan strategiyalar hisoblanadi. Ushbu lingvistik xususiyatlarni tushunish siyosiy nutqni tanqidiy tahlil qilishga va gaplarning asl mazmunini tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Conolly W. The Terms of Political Discourse. Princeton University Press, 1993.

(2). Goddard, Cliff and Anna Wierzbicka, 1997, Discourse and Culture. In Teun A.van Djik. (ed.), Discourse as Social Interaction.

(3). Linguistic Features of Political Discourse, Kuralay Kenzhekankyzy Kenzhekanova. Al-Farabi Kazakh National University.

(4). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. “Sangzor” nashriyoti, 2006.

(5). Teun A. van Djik. What is Political Discourse Analysis? 28 p.

(6). https://president.uz

(7). https://trumpwhitehouse.archives.gov

Karimova Dilorom Shavkat qizi (Andijon davlat Pedagogika instituti “Amaliy xorijiy tillar” kafedrasi, f.f.f.d. (PhD); e-mail: karimovadilorom15@gmail.com)

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA LINGVOMADANIYAT VA ANTROPOTSENTRIK BIRLIKLARNING MOHIYATI

Annotatsiya. *Ilmiy tadqiqotda konseptosfera til birliklari va ma’nolar majmuyi bilan ifodalanadi. Konseptosfera tildagi alohida so‘zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunda biror konseptga xos bo‘lgan tushuncha va ma’nolarning maydoni yoki ularning majmui konseptosferani tashkil qilgan. Konsept va konseptosfera terminlarining o‘xshash tomonlari ularning inson ongida paydo bo‘lib, biror-bir obrazni tasvirlashida ko‘rinadi. Binobarin, konseptosfera fikrlash in’ikosi sifatida hamda universal bir predmetga xos ramziy birliklarning majmuyi sifatida insonlarning axborot doirasini tashkil qilib, u til birliklari bo‘lgan so‘z, metafora, frazeologizmlar, sintaktik struktura kabilar orqali ifodalangan.*

Kalit so‘zlar: *konsept, konseptosfera, olamning lisoniy manzarasi, lingvopragmatik, lingvokognitiv, antroposentrik birliklar.*

Каримова Дилором Шавкатовна (Андижанский государственный педагогический институт, кафедра прикладных иностранных языков ф.ф.ф.д. (PhD); karimovadilorom15@gmail.com)

СУЩНОСТЬ ЛИНГВОКУЛЬТУРЫ И АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В ЯЗЫКОВОМ ЛАНДШАФТЕ МИРА

Аннотация. *В языковом ландшафте мира концептосфера представлена совокупностью языковых единиц и значений. Концептосферу можно выразить и через отдельные слова языка. В этом случае поле понятий и значений, свойственное понятию или их совокупности, образует концептосферу. Сходные аспекты терминов концепт и концептосфера проявляются в том, как они появляются в сознании человека и описывают образ. Поэтому как отражение понятийного мышления и как совокупность характерных для универсального объекта символических единиц она образует*

круг информации людей и выражается через слова, метафоры, фразеологию, синтаксическую структуру.

Ключевые слова: *концепт, концептосфера, языковой ландшафт мира, лингвопрагматика, лингвокогнитив, антропоцентрические единицы.*

Karimova Dilorom Shavkatovna (Andijan State Pedagogical Institute Department of Applied Foreign Languages f.f.f.d. (PhD); e-mail: karimovadilorom15@gmail.com)

THE ESSENCE OF LINGUISTIC CULTURE AND ANTHROPOCENTRIC UNITS IN THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD

Annotation. *In the linguistic landscape of the world, the conceptual sphere is represented by a set of linguistic units and meanings. The conceptual sphere can also be expressed through individual words of the language. In this case, the field of concepts and meanings inherent to a concept or their set forms the conceptual sphere. Similar aspects of the terms concept and conceptual sphere are manifested in how they appear in human consciousness and describe an image. Therefore, as a reflection of conceptual thinking and as a set of symbolic units characteristic of a universal object, it forms a circle of people's information and is expressed through words, metaphors, phraseology, and syntactic structure.*

Key words: *concept, conceptosphere, linguistic landscape of the world, linguopragmatic, linguocognitive, anthropocentric units.*

Kirish. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Olamning lisoniy manzarasi – bu subyektning atrof-olam, real yoki xayoliy voqelikka oid bilim va fikr-mulohazalari majmuasi. Ilmiy tasnif va talqinlar negizida mujassam bo‘lgan dunyo to‘g‘risidagi dastlabki bilimlar aynan tilda turg‘un shakllar ko‘rinishida saqlanib qolgandir. Ilmiy adabiyotlarda dunyo obrazi va olam modeli terminlari ham uchraydi, biroq ular kam tarqalgan. Olam lisoniy manzarasi termini birinchi bor fizika fanida G.Gers tomonidan qo‘llanilgan. Taniqli olim ushbu tushunchani tashqi obyektlarning ichki obrazlari yig‘indisi deydi, hamda ular ushbu obrazlarning xatti-harakatlari to‘g‘risidagi mantiqiy mulohazalarni shakllantirishga xizmat qiladi, deya ta’kidlaydi. Keyinchalik bu termin boshqa fanlarga ko‘chgan, u K.Yaspers va L.Vitgenshteynlarning mantiqiy falsafiy traktat‖ asarida, shuningdek, L.Vaysgerber asarlarida olam manzarasi termini ishlatilgan. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida olamning turli manzaralariga umumiy mazmunda hamda konsept va konseptosferalar nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va borilmoqda, xususan, N.Mahmudov, Sh. Safarov, E.Begmatov, A.Nurmonov, A.Mamatov, J.Eltazarov, Sh.Usmonova, D.Xudoyberganova, D. Baxronova singari olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga kasb etadi.

Hozirgi zamon lingvistikasida til va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasi, konsept tushunchasi va uning bag‘rida lingvomadaniy tahlilningmetod va usullari tadqiqi amalga oshirilgan. Tilshunoslikda til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antroposentrik pradigma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qiladi. Til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi nuqtayi nazaridan o‘rganish, milliy mentallikni anglash masalalarini tahlil qilishhamtilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Tilshunoslikda inson faoliyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan antroposentrik tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Modomiki, frazeologik birliklar inson faoliyati bilan bog‘liq narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalar ekan, shunday hodisalarni emosional-ekspressiv, obrazli ifodalash ehtiyoji asosida shakllanar ekan, ularni til va madaniyat munosabatida tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etadi. Til –bu olamning birlamchi konseptuallashuvi va inson tajribasi rasionallashuvining universal shakli, borliq haqidagi tafakkurda shakllangan bilimlarni ifodalash va ajdodlardan avlodlarga yetkazish vositasi, inson hayotidagi ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega voqealar haqidagi tarixiy xotiralardir. Rus olimi I.A.Ilyin, xalq tili uning qalbi va ruhining o‘ziga xos badiiy libosidir, deb to‘g‘ri ta’kidlaydi. Zotan, “…tilni asrash, rivojlantirish millatning yuksalishi demakdir”.[1]

“Olamning lisoniy manzarasi” istilohi zamonaviy tilshunoslikning eng yirik yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlarda faol sanaladi. O‘z-o‘zidan, mazkur atama tarkibidagi “lisoniy” sifatlovchisi olamning yana boshqa manzaralari ham mavjud ekanligiga ishora qiladi.[2] Zero, “olamning lisoniy manzarasi – borliq haqidagi bilimlarning til vositasida aks ettirilishi, shuningdek, yangi bilimlarni egallash va ularni ifodalash vositasidir”. “Olamning lisoniy manzarasi – bu, barcha lisoniy imkoniyatlarning majmuasi, u ma’lum bir o‘ziga xos madaniyat ruhi, til egalaridan iborat jamiyatning mentaliteti, til imkoniyatlari va vazifalarini ko‘rsatib bermoqda. Olamning lisoniy manzarasi etnos va tilning tarixiy ta-

[1] Ҳаитов А. Тил – миллатнинг маънавий бойлиги. “Халқ сўзи” https://xs.uz/uzkr/post/til-millatningmanavij-bojligi

[2] Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2015, 3, 3 – 10-betlar.

raqqiyot jarayonini aks ettiradi, ayni vaqtda, tilning kelajakdagi holati haqida ilmiy bashorat beradi. Olamning lisoniy manzarasi tildagi eng sodda jarayonlardan boshlab, tilning o‘ziga xos xarakterida namoyon bo‘luvchi murakkab jihatlarini qamrab oladi va hech bir lingvistik jarayon undan chetda qolmaydi. Olamning lisoniy manzarasi tarixiy taraqqiyot davomida o‘zgarishlarga uchraydi va u lingvistik hodisa bo‘lish bilan bir qatorda, ayni vaqtda, madaniy hodisa ham hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasi bir avlod vakili tomonidan yaratiladi hamda ikkinchi avlod vakili tomonidan boyitilmoqda.

Tilshunoslar olamning lisoniy manzarasi va konseptosfera ayni bir voqelikning turlicha nomlanishi degan fikrni bildirishadi. Demak, konseptosferaning tarkibiy qismi hisoblangan konseptlar – olam lisoniy manzarasining ham asosiy vositasi sanaladi. Endi olamning lisoniy manzarasida taqlidlar qanday o‘ringa ega, degan muammo yechimiga o‘tar ekanmiz, buning uchun taqlidiy so‘zlarning kelib chiqishi, semantik vazifasi va mohiyati masalalariga to‘xtalish lozim.[1]

Olamning lisoniy tasviri xususida ilk bor V.Gumbolt falsafiy dialektika asosida mushohada yuritadi. Tilni falsafiy asosda o‘rganar ekan, olamning lisoniy tasviri va uning tarkibiy elementlari xususida, jumladan, olamning umumiy lisoniy tasviri, milliy lisoniy tasvir va xususiy lisoniy tasvir kategoriyalariga to‘xtalib o‘tmaydi. Olamning lisoniy tasviri va milliylik kategoriyalarining o‘zaro chambarchasligi masalasiga esa keyinchalik tilshunos olim L.Vaysgerber alohida e’tibor qaratadi va o‘z tadqiqotlarida ona tili millatni birlashtirib turuvchi birdan-bir mustahkam uzv ekanligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surib, olamning milliy lisoniy tasviri haqida atroflicha fikr yuritilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ikki madaniyat hech qachon bir-biriga to‘liq muvofiq kelmaydi. Bu nomuvofiqliklar taqqoslanayotgan tillardagi lingvokulturologik birliklarning leksik-semantik, funksional, uslubiy va grammatik xususiyatlarida ham kuzatiladi. Bu qatlamga oid ba’zi birliklarning qiyoslanayotgan ikkinchi bir tilda ekvivalenti bo‘lishi, ushbu birliklarni lingvistik jihatdan teng qiymatga ega ekanligini ko‘rsatmaydi. Chunki bir madaniyat vakili kognitiv lisoniy olamida mavjud konseptosfera boshqa bir madaniyat vakili tilida realiya yoki lakuna hodisasi sifatida qabul qilinishi yoki verbalizatsiyalanmagan holatda mavjud bo‘lishi ham mumkin. Lingvokulturologik birliklarning ushbu xususiyatlari ularni qiyosiy asosda tahlil qilganda, har ikki tildagi semantik-struktural xarakter-xususiyatlarini hisobga olgan holda tavsiflaganda va tasniflaganda yanada oydinlashadi.

Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e’tiborini shaxs omiliga qaratib kelmoqda.[2]

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi.[3] “Antropotsentrizm” so‘zi yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum–markaz ma’nosini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan. “Antropotsentrizm” termini, dastlab, qadimgi yunon falsafasining “Inson – koinot markazidir” degan g‘oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, bu g‘oya ayniqsa O‘rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi.[4] Tilshunoslikda til tizimini antropotsentrik nuqtai nazardan o‘rganish, aso-san, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologi-yaga oid tadqiqotlarda namoyon bo‘lgan. Antropotsentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgan. O‘zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari o‘zida antropotsentrik yo‘nalish tendentsiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Professor Sh.Safarov antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Sistem-struktur paradigma o‘zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, ya’ni, til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qil-inishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo‘lini tutdi. Sistem-struktur yo‘nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma’lum bo‘ldi: bu

---

[1] Юлдашев А.Г. Оламни лисоний концептуаллаштириш. “Хорижий филология”, 2020, 4, 61–62-бетлар.

[2] Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании. “Филологические науки”, Москва, 2001, 1, с. 64.

[3] Маслова В.А. Лингвокультурология. М., “Academia”, 2001, с. 17; Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2012, 5, 3–16-бетлар; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. М., “Флинта”, 2014, с. 8.

[4] http //ph.ras.ru//elib 0215 html: Новая философская энциклопедия.

yo‘nalishlarda til o‘z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratili-shiga sabab bo‘ldi”.[1]

Professor N.Mahmudov esa tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganiday, inson aqlini insonning o‘zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi”.[2] Tilshunoslikda e’tirof etilganidek, antropotsentrik paradigmada asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratiladi.[9] Aytish joizki, ilmiy paradigmaga “til sohibi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etmoqda.[3]

Antropotsentrik paradigma inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yadi va til insonning asosiy ajralmas xususiyati, uning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson intellektini, xuddi insonning o‘zi kabi, nutqni yaratish va idrok etish qobiliyati sifatida til va til qobiliyatidan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shaxs tomonidan yaratilgan matn inson tafakkurining harakatini aks ettiradi, fikrlash dinamikasini o‘zida aks ettiradi va ushbu dinamikani til yordamida ifodalash usullarini qamrab oladi. Professor N.Mahmudov tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Zamonaviy ilm-fan endi nafaqat insonga, balki shaxsiyat, ya’ni, murakkab ichki dunyoga va taqdirga, o‘ziga xos turdagi munosabatlarga ega bo‘lgan aniq shaxs, ong, til tashuvchisiga qiziqish bildira boshladi. U koinotda va Yerda alohida mavqega ega, u doimo dunyo, o‘zi va o‘zgalar bilan muloqotga kirishadi. Odamzod tabiatan ijtimoiy mavjudotdir, insondagi shaxs jamiyat sharoitida, insoniyat tomonidan yaratilgan madaniyat sharoitida vujudga keladi. Shaxs deganda biz milliy hamjamiyatning boshqa vakillari bilan birgalikdagi faoliyatida (va, eng muhimi, nutqiy faoliyatda) ishtirok etuvchi, ma’lum bir milliy mentalitet va tilning tashuvchisi sifatida tushunamiz. Tilshunoslikni umuman inson emas, balki tildagi – lisoniy shaxs qiziqtiradi. Gap shundaki, til yashirin tafakkur olamiga kirib borishimizga yordam beradigan yagona vositadir, zero, til bizga inson haqida o‘zi bilmagan narsalarni aytib bera oladi. V.Gumboldt shunday deb yozgan edi: “Tilni o‘rganish yakuniy maqsadni o‘z ichiga olmaydi, balki boshqa barcha sohalar bilan birgalikda insonning o‘zini-o‘zi bilishi va uning atrofidagi oshkora va yashirin barcha narsaga munosabati haqidagi oliy va umumiy maqsadga xizmat qilmoqg’i darkor”.[4]

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, inson – shaxs madaniyatni yaratadi va unda yashaydi. Aynan shaxsda insonning ijtimoiy tabiati birinchi o‘ringa chiqadi va shaxsning o‘zi ijtimoiy-madaniy hayotning subyekti sifatida harakat qiladi. Lisoniy shaxs tilda aks etgan madaniyat makonida, turli darajadagi ijtimoiy ong shakllarida (ilmiy, maishiy va boshqalar), xulq-atvor stereotiplari va me’yorlarida, moddiy madaniyat obyektlarida va hokazolarda mavjuddir. V.A.Maslova fikricha, lisoniy shaxs odatda quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1) qadriyat, dunyoqarash, ta’lim komponenti. Til yordamida olam haqida dastlabki va chuqur dunyoqarash shakllanadi, u dunyoning lingvistik qiyofasini va milliy xarakterning shakllanishiga asos bo‘ladigan va lingvistik dialog aloqasi jarayonida amalga oshiriladigan ma’naviy g‘oyalar iyerarxiyasini shakllantiradi;

2) madaniy komponent. O‘rganilayotgan til madaniyati haqidagi bilimlar muloqot jarayonida sherigiga samarali ta’sir qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi;

3) shaxsiy komponent, ya’ni har bir insongagina xos bo‘lgan ichki individual shaxsiyati. Demak, lisoniy shaxs ijtimoiy hodisa bo‘lishi bilan bir qatorda, insonning individual jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Lisoniy shaxsdagi individ tilga bo‘lgan ichki munosabat, shaxsiy lingvistik ma’nolarni shakllantirish orqali yuzaga keladi; lekin, shu bilan birga, lisoniy shaxsning til an’analari shakllanishiga ta’siri borligini ham

---

[1] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 35-бет

[2] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... “Ўзбек тили ва адабиѐти”, Тошкент, 2012, 5, 6–7-бетлар.

[3] Седов К.Ф. Дискурс и личность. М., “Лабиринт”, 2004, с. 5.

[4] Гумбольдт В. фон. О пределах государственной деятельности: пер с нем. Челябинск, “Социум”, М., Три квадрата, 2003, 195 с.

unutmaslik kerak. Har bir lisoniy shaxs o‘zidan oldingilar yaratgan barcha til boyliklarini muayyan shaxs tomonidan o‘zlashtirib olishi asosida shakllanadi. Lingvokulturologiya sintezlashga asoslangan murakkab ilmiy fan bo‘lib, u madaniyat va til faoliyatidagi munosabatni va o‘zaro ta’sirni o‘rganadi hamda bu jarayonni tizimli usullardan foydalangan holda, lingvistik va ekstralingvistik (madaniy) tarkibning birliklarini bir butun tizim sifatida aks ettirmoqda.

Abduraximova Farida Komiljon qizi lingvokulturologiyani turli darajadagi til birliklari, nutq faoliyati, nutq xatti-harakatini o‘rganish orqali ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilar dunyosi haqidagi bilimlarni ifodalashning turli usullarini o‘rganadigan, so‘zlovchilarning ongi va tafakkurini aks ettiradigan, tahlil qilinayotgan nutq birliklarining ma’nosini to‘liq ochib beradigan filologik fan deb hisoblanadi.[1]

Antropotsentrik paradigma insonni birinchi o‘ringa qo‘yadi va til insonning asosiy tarkibiy xususiyati, uning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Insonning aql-zakovati, insonning o‘zi singari, nutqni yaratish va idrok etish qobiliyati sifatida til va til qobiliyatidan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Agar til barcha fikrlash jarayonlariga tajovuz qilmasa, agar u yangi aqliy bo‘shliqlarni yaratishga qodir bo‘lmasa, unda odam to‘g‘ridan to‘g‘ri kuzatiladigan narsalar doirasidan tashqariga chiqmaydi. Inson tomonidan yaratilgan matn inson tafakkurining harakatini aks ettiradi, mumkin bo‘lgan olamlarni quradi, fikr dinamikasini va uni til vositalaridan foydalangan holda namoyish etish usullarini aks ettiradi.

Tilshunoslikda inson faoliyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan antropotsentrik tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Modomiki, frazeologik birliklar inson faoliyati bilan bog‘liq narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalar ekan, shunday hodisalarni emotsional-ekspressiv, obrazli ifodalash ehtiyoji asosida shakllanar ekan, ularni til va madaniyat munosabatida tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etadi. Mazkur maqoladagi til materiallari o‘zbek milliy-madaniy dunyoqarashining frazeologik sathdagi aspektlarini tahlil va tavsif etishga yo‘naltirilmoqda.

Til u yoki bu millat madaniyatining elementi, qismi, fakti, omili, shakli, manbasi, saqlovchisi, xotirasi, translyatori, mavjudlik sharti hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik integrativ mustaqil fan sohasi sifatida olamning lisoniy manzarasi va til shaxsining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi hamda yuzaga chiqaradi. Tilshunos V.A.Maslova lisoniy madaniyatshunoslikning predmetini:

1) noekvivalent leksika va lakunalar; mifologik lisoniy birliklar;
2) til paremiologik fondi;
3) til frazeologik fondi;
4) etalon, streotip, simvollar;
5) til metafora va obrazlari;
6) turli tillar uslubiy tarzi;
7) nutqiy xulq;
8) nutqiy etiket maydoni” kabi turlarga ajratib yanada aniqlashtiradi.

Frazeologizmlar millatning mahsuli sifatida milliy madaniy manzarani kognitiv-pragmatik aspektlarda bayon etadi. Lisoniy konsept va uning lingvomadaniy aspektlari esa madaniy-lisoniy aloqalarning ko‘p qirrali jihatlarini ifoda etadi. Jahon va o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning milliy-madaniy o‘ziga xos xususiyatlariga hamda til va madaniyatning o‘zaro munosabatlariga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlar yaratilgan. Frazeologizmlarning lisoniy madaniyatshunoslik doirasida o‘rganish natijalari tahlili asosida lingvomadaniyatshunoslikning integrativ mustaqil fan sohasi ekanligi e’tirof etiladi.

Xulosalar. Tilshunoslik tarixida til va madaniyatning o‘zaro munosabati, birinchidan, til madaniyatning oddiy in’ikosi, ikkinchidan, tilni madaniyat, falsafa va psixologiyaning negizi, ya’ni, tilning madaniyatga ta’sirini birlamchi deb hisoblaydigan, uchinchidan: til biz, ajdodlarimizdan meros qilib olgan madaniyatning tarkibiy qismi, til – biz uning yordamida madaniyatni o‘zlashtirishimizdagi asosiy vosita, nihoyat, til – ruhimiz voqeligi kabi uch yondashuv e’tirof etiladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, konseptlar bizning dunyoni tushunishimizda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan asosiy kognitiv tuzilmadir. Falsafa, psixologiya, tilshunoslik va nevrologiya kabi turli sohalarda olimlar konseptlarning qanday shakllanishi, ifodalanishi va bilishda ishlatilishini tushuntirish uchun turli nazariy qarashlarni taklif qildilar. Klassik nazariyalar, prototip nazariyalari, namunaviy nazariyalar, nazariya nazariyalari yoki mujassamlangan bilish obyektivi orqali qaralsa ham, konseptlar inson tafakkuri, tili va xatti-harakati uchun qurilish bloklarini ta’minlaydi. Konseptlar tasnifi kognitiv tilshunoslikning eng dolzarb muammosi sifatida bugungacha kun tartibining bosh masalasi

[1] Abduraximova Farida Komiljon qizi. Lingvokognitologiya: til va tafakkur. Results of National Scientific Research InternationalJournal.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hXRYYwIAAAAJ &c itation_for_view=hXRYYwIAAAAJ:8k81kl-MbHgC

bo‘lib turibdi. Kognitiv tilshunoslikda konseptlar tasnifiga turlicha yondashilgan, lekin ularning birontasi ham kognitiv tilshunoslar tomonidan yakdillik bilan qabul qilinmagan va hanuzgacha munozarali masala sifatida qolib kelmoqda. Shuni ta’kidlashimiz joizki, oxirgi yillardagi lingvokulturologik tadqiqotlarda olamning lisoniy manzarasini o‘rganish yo‘nalishida faol tadqiqotlar amalga oshirilib kelmoqda. Olam manzarasi (jumladan, olamning lisoniy manzarasi) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o‘rganish asosida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ҳаитов А. “Тил – миллатнинг маънавий бойлиги”. “Халқ сўзи” газетаси. https://xs.uz/uzkr/post/til-millatningmanaviy-boyligi.

(2). Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2015, 3. 3 – 10-бетлар.

(3). Юлдашев А.Г. Оламни лисоний концептуаллаштириш. “Хорижий филология”, 2020, 4, 61–62-бетлар.

(4). Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании. “Филологические науки”, Москва, 2001, № 1, с. 64.

(5). Маслова В.А. Лингвокультурология. М., “Academia”, 2001, с. 17; Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... “Ўзбек тили ва адабиёти, Тошкент, 2012, 5, 3–16-бетлар; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. М., “Флинта”, 2014, с. 8.

(6). http //ph.ras.ru//elib 0215 html: Новая философская энциклопедия.

(7). Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., “Художественная литература”, 1979, 424 с.

(8). Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 3-бет.

(9). Гумбольдт В. фон. О пределах государственной деятельности: пер с нем. Челябинск, “Социум”, М., 2003, 195 с.

(10). Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2012, 5-, 6–7-бетлар; 9-бет; Седов К.Ф. Дискурс и личность. М., “Лабиринт”, 2004, с. 5.

(11). Abduraximova Farida Komiljon qizi. Lingvokognitologiya: til va tafakkur. Results of National Scientific Research International Journal. https://scholar.google.com/citations

Ishanjanova Munosibxon Saidahmadovna (Andijon davlat Chet tillari instituti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“BOBURNOMA”NING FRANSUZCHA TARJIMALARIDA ETNOGEOGRAFIK BIRLIKLARNING AKS ETISHI

Annotatsiya.*Mazkur maqolada «Boburnoma»ning fransuzcha tarjimalari kontekstida etnogeografik birliklarning aks etish masalasi o‘rganilgan. Asarning tarjimasi davomida muallif Bobur tomonidan ifodalangan etnik hududiy va geografik birliklarning qanday tasvirlanganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, fransuz tilidagi tarjima jarayonida etnogeografik terminologiyaning saqlanishi yoki o‘zgarishiga ham urg‘u berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, tarjima usullari, transliteratsiya, etnogeografik birlik, geografik muhit.*

Ишанджанова Муносибхон Саидахмадовна (доцент Андижанского государственного института иностранных языков, доктор философии (PhD) по филологическим наукам)

ОТРАЖЕНИЕ ЭТНОГЕОГРАФИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ПЕРЕВОДЕ “БАБУРНАМЫ”

Аннотация. *В данной статье исследуется вопрос отражения этногеографических единиц в контексте французского перевода «Бабурнамы». В ходе перевода произведения анализируется, как описываются этнические территориально-географические единицы, представленные автором Бабуром. Также подчеркивается сохранение или изменение этногеографической терминологии в процессе французского перевода.*

Ключевые слова: *“Бабурнама”, методы перевода, транслитерация, этногеографическая единица, географическая среда.*

Ishanjanova Munosibkhon Saidakhmadovna (Associate professor of Andijan State Institute of foreign languages, Doctor of philosophy in philology (PhD)

THE REFLECTION OF ETHNOGEOGRAPHIC UNITS IN THE FRENCH TRANSLATIONS OF “BOBURNOMA”

Annotation. *This article deals with the question of the reflection of ethnogeographic associations in the context of the French translations of the “Baburnama”. During the translation of the work, the author*